



Oynisa Musurmanova,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor*

YOSH QIZLAR – YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGINING QUDRAT MANBAYI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda yoshlar, shu jumladan, yosh qizlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida munosib o‘rin egallashlari uchun davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning gender tenglik asosida iqtidor va qobiliyatlariga ko‘ra bilim olishlari, kasb egallashlari, mehnat va bandligini ta‘minlash borasida berilayotgan imtiyozlarning natijadorligi hamda mazmun va mohiyati ifoda etilgan.

Tayanch so‘zlar: yoshlar, yosh qizlar, iqtidor, qobiliyat, yoshlar biznes loyihalari, magistraturada tahsil olayotgan qizlar, qizlarga berilgan imtiyozlar, “Xalqaro qizlar kuni”, “Qizlar uchun maxsus stipendiya”, yoshlar uchun 5 ta muhim tashabbus, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik, statjyor-tadqiqotchi.

Аннотация. В статье идёт речь об общественно-политических мерах, реализуемых нашей страной для того, чтобы молодые люди, в частности молодые девушки заняли достойное место в развитии Нового Узбекистана. Помимо этого, освещены условия, созданные для раскрытия их талантов и способностей на основе гендерного равенства, выражена эффективность, содержание и сущность предоставляемых льгот для получения образования, приобретения профессии и обеспечения их работой и занятостью.

Ключевые слова: молодежь, молодые девушки, талант, способности, молодежные бизнес-проекты, девушки, обучающиеся в магистратуре, привилегии, предоставляемые девушкам, «Международный день девушек», «Специальная стипендия для девушек», 5 важных инициатив для молодежи, базовая докторантура, докторантура, независимое исследование, стажер-исследователь.

Annotation. The article deals with the socio-political measures implemented by our country for young people, in particular young girls, to take their rightful place in the development of New Uzbekistan. In addition, the conditions created for revealing their talents and abilities on the basis of gender equality are highlighted, the effectiveness, content and essence of the benefits provided for education, acquiring a profession and providing them with work and employment are expressed.

Key words: youth, young girls, talent, abilities, youth business projects, girls who is studying in the magistracy, privileges provided to girls, «International Day of Girls», «Special Scholarship for girls», 5 important initiatives for young people, basic doctoral studies, doctoral studies, independent research, trainee researcher.

“Kelajakka intilib yashaydigan yosh avlod
sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot
barqaror bo‘lishi uchun yangi g‘oyalar va ijodiy
ruhdagi sa’y-harakatlarni amalga oshiradigan
beqiyos kuchdir”
Sh.M.Mirziyoyev

Kirish. 1990-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinishi xalqimiz, shu jumladan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida tubdan o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonning oltin resurslari bo‘lmish yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar butun dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida 12–13-avgust kunlari bo‘lib o‘tgan Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabriklarida ta’kidlaganidek: **“Hozirgi zamonda intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo‘lib maydonga chiqmoqda”.**

Shu bois yoshlar masalalari bo‘yicha qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ularning ijtimoiy-siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini boyitish, jamiyat taraqqiyotidagi faolligini ta’minlash, mamlakatimiz ta’lim tizimi va xorijda tahsil olayotgan hamda mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va boshqa masalalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, 2016-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 7-avgustda Oliy Majlis Senatining oltinchi yalpi majlisida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi, “O‘zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar

ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son, 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlaridagi qator g‘oyalar yoshlar kelajagini ta’minlashga qaratilgan. Prezidentimizning 60-son Farmonining 69-maqsadi esa “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash”dek muhim chora-tadbirlardan iboratdir. Mazkur maqsadda xotin-qizlar, shu jumladan, qizlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha 7 ta ustuvor yo‘nalish belgilangani muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlatimiz rahbari 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi O‘zbekiston xotin-qizlarining orzu-istaklarini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim qadam bo‘ldi.

Jumladan, keyingi yillarda iqtidorli, ijodkor yoshlar, shu jumladan, qizlar uchun Prezident va ijod maktablari, ulug‘ allomalarimiz nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar, matematika, kimyo va biologiya sohalari bo‘yicha maxsus maktablar, bir necha turdagi zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari, har bir hududda barpo etilayotgan “Yoshlar texnoparklari”, “IT markazlar”, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshidagi “Yoshlar akademiyasi”, “Yosh olimlar”ning innovatsion va amaliy tadqiqot loyihalari, yoshlar biznes loyihalari uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, “Har bir yoshga bir gektar” loyihasi, “Yoshlar mehnat guzari”, “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi, uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional zamonaviy ta’lim tizimining tashkil etilishi hamda oliy ta’lim tizimida xalqaro miqyosda raqobatbardosh yosh malakali kadrlar tayyorlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarning barchasi Yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini ta’minlashi muqarrardir.

Asosiy qism. Mustaqil O‘zbekistonning yoshlarga oid siyosati haqidagi g‘oyalarning xalqaro darajada e’tirof etilishi olamshumul voqea bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani qabul qilish haqidagi tashabbusning jahon hamjamiyati tomonidan

yakdillik bilan qoʻllab-quvvatlanishi hamda uning loyihasi Samarqand forumida qizgʻin muhokama qilingani dunyo aholisining 25% (ikki milliardga) ga yaqin, mamlakatimizning esa 60% dan ortigʻini tashkil etgan 30 yoshgacha boʻlgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Darhaqiqat, yoshlarga oid siyosatning mazmun va mohiyati negizi BMTning Yoshlar strategiyasida taʼkidlangan, “yoshlar siymosida eng qimmatli va oʻta muhim resurslar mujassam topgan boʻlib, unga har qancha investitsiya kiritisa, arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda boʻlib qaytadi” degan gʻoya tashkil etadi. Shu sababli Yangi Oʻzbekistonimizda bu borada mukammal va samarali mexanizmga asos solindi.

“Sen – qudrat manbayi, saodat maskani, jonajon Oʻzbekiston” shiori ostida mustaqillikning 29 yilligini nishonlash arafasida 2020-yilning 30-iyunida Prezident Farmoniga binoan tashkil etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti, yoshlar masalalari boʻyicha idoralararo kengash, mahallalarda yaratilgan maxsus tizim va boshqa nufuzli organlarning tashkil etilishi yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini taʼminlashi muqarrar.

Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksi joriy etilmoqda. Bu esa yosh qizlarimiz kelajagining barqarorligini taʼminlash uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Yoshlarni, shuningdek, yosh qizlarni ezgu maqsad sari birlashtirishning muhim shakllaridan biri yoshlarga oid turli bayram tadbirlarini nishonlash hisoblanadi. Bu borada milliy qonunchiligimizga koʻra, 30-iyunni Oʻzbekistonda “Yoshlar kuni” sifatida hamda BMT Bosh Assambleyasining 54/120-sonli rezolyutsiyasiga binoan, 1999-yildan buyon har yili 12-avgustning Xalqaro yoshlar kuni sifatida jahon miqyosida keng nishonlanishi yoshlarimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrda rezolyutsiyasi asosida 11-oktabr “Xalqaro qizlar kuni” deb eʼlon qilinishi munosabati bilan 2012-yildan buyon dunyoda va mamlakatimizda ham nishonlanayotgan yosh qizlarning huquq va manfaatlarini, ezgu maqsadlarini

qoʻllab-quvvatlash borasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida davlatimizning yosh yigit va qizlarga oid siyosatining tub mohiyati ularning intellektual mulk salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar etishga tayyorlash, ilm-maʼrifatli, kompetentli zamonaviy mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat boʻlmoqda.

Bu borada keyingi yillarda mamlakatimiz taʼlim tizimida erishilgan yutuqlarning ulushi nihoyatda beqiyos.

Chunki axborot texnologiyalari asrida jamiyat rivojining barcha sohalarida raqobatning yuqoriligi, raqobatbardosh, yuksak intellektual salohiyatli kadrlarga boʻlgan ehtiyojni taqozo etmoqda. Ushbu muammoni hal etishning optimal yoʻli esa taʼlim tizimini modernizatsiya qilishdan iboratligi oddiy aksiomadir.

2020-yil 30-iyundagi Prezident Farmoniga binoan tashkil etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti, yoshlar masalalari boʻyicha idoralararo kengash va boshqa nufuzli organlarning tashkil etilishi yosh qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birgina Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida zamonaviy bilim va yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, oliy taʼlimni modernizatsiya qilish, ilgʻor taʼlim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va berilayotgan imtiyozlar nihoyatda salmoqlidir. Eng muhimi, yoshlarimizning OTMga qamrovi yildan yilga oshib bormoqda. 90-yillar boshida Oʻzbekiston Respublikasida 42 ta oliy taʼlim muassasalari faoliyat olib borgan boʻlsa, ularning soni bugunga kelib 186 tani tashkil etmoqda. Yoshlarimizning xorijiy oliy oʻquv yurtlarida oʻqish orzu-istaklari endi Oʻzbekistonda roʻyobga chiqish baxtiga sazovor boʻldi. Yaʼni 31 ta xalqaro nufuzli oliy taʼlim muassasalarining filiallari mamlakatimiz hududlarida ochilib, yosh yigit va qizlarimizga xalqaro standartlar asosida taʼlim bera boshladi. 42 ta nodavlat taʼlim muassasalarining tashkil etilishi qizlarimizga berilgan yana bir buyuk neʼmatdir.

Milliy va xalqaro oliy ta'lim muassasalarining har bir hududda ham tashkil etilayotgani shu hudud uchun zarur yosh malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda yoshlarning kasb egallashlari va bandligini ta'minlashda keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shuningdek, yoshlarimiz uchun chuqur bilim olish, kasb egallash uchun shart-sharoit yaratish maqsadida ta'limning kunduzgi, kechki va sirtqi shakllari tashkil etildi.

Bilimli yoshlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini yanada oshirish maqsadida tanlovda ishtirok etish mumkin bo'lgan oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari soni 3 tadan 5 taga oshirildi, ya'ni 2019-yilda 3 tagacha ta'lim yo'nalishini tanlash mumkin bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 5 tagacha ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyati berilmoqda.

2019–2020-o'quv yilidan respublikamizdagi 33 ta oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayoni tashkil qilinmoqda.

Oliy ta'lim muassasalariga kirishda ayrim toifadagi yoshlarimiz uchun berilgan imtiyozlar soni 2019-yilda 5 ta bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 7 toifadagi yoshlarga to'liq davlat granti asosida imtiyozlar berilmoqda, ya'ni bu yil ijtimoiy kam ta'minlangan aholi qatlamidagi xotin-qizlar va So'x tumani yoshlari ham ushbu imtiyozlarga ega bo'ldilar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-son qaroriga muvofiq, OTMlarda 2020–2021-o'quv yilida xotin-qizlar uchun 940 ta davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari ajratilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi PQ-5157-son qaroriga muvofiq 2021–2022-o'quv yilida ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat granti 2 baravarga oshirildi va 2000 ta davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari ajratildi. 2022-yildan e'tiboran magistraturada tahsil olayotgan qizlarni tayyorlash to'liq davlat granti asosida amalga oshirila boshlandi.

Hozirgi kunda respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni 314 294 nafarni tashkil etayotgan bo'lib, bu jami talabalar soniga nisbatan 47 foizni tashkil etmoqda. Ulardan 22 foizi oilali, 9 foizi darsdan bo'sh vaqtida ishlaydi. Buning uchun OTM tomonidan sharoit yaratib berilgan.

Respublika bo'yicha sohalar kesimida 3 yillik ma'lumotlarning tahliliga ko'ra, yildan yilga talaba-

qizlar ulushi ortib bormoqda. Masalan, 2020-yil talaba-qizlar soni 2017-yilga nisbatan 18 foizga oshganini alohida takidlash lozim.

Shuningdek, 2021–2022-o'quv yilidan boshlab bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari hisobidan o'qitish tartibi joriy etilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoniga muvofiq muayyan sohada 5 yillik ish stajiga ega xotin-qizlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyasiga asosan sohaviy oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirish imkoniyati yaratildi.

2021–2022-o'quv yilidan boshlab "Qizlar uchun maxsus stipendiya"lar joriy qilinmoqda. Mazkur stipendiya a'lo baholarga o'qiyotgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj, davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida ta'lim olishidan qat'i nazar oyma-oy tayinlangan stipendiyasiga qo'shimcha bazaviy stipendiya miqdorida ta'sis etilmoqda. Ushbu stipendiya sohibalari oliy ta'lim muassasalarining stipendiya komissiyasi tomonidan belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi.

Harbiy xizmatchilar va Ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga ijodiy imtihonlari mavjud bo'lgan ta'lim yo'nalishlariga kirishda tavsiyanomadan foydalanish imkoniyati berildi.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi sharoitida masofaviy ta'lim olish yo'lga qo'yildi. 7 mingga yaqin fandan masofaviy ta'lim resurslari yaratildi.

Mustaqillik yosh qizlarning o'z ilmiy salohiyatlarini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar ham berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qaroriga muvofiq Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim – **tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik** o'qitish shakllari amalga oshirila boshlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli

tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 606-son qaroriga muvofiq 2020-yildan Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi joriy etilishi hamda 2020-yilning yanvar oyidan boshlab stajyor-tadqiqotchilik faoliyati yo'lga qo'yilgani ham yoshlarimizning o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarish uchun ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanishida katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida tarbiyalash borasida ham muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida yosh qizlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash 5 ta muhim tashabbus doirasida amalga oshirish tartibi joriy etilgan bo'lib, uning salmog'i nihoyatda katta bo'lmoqda. 2019-yildan boshlab OTMlarda o'tkazilayotgan "Ma'rifatli yoshlar – yurt tayanchi" shiori ostidagi talabalarining an'anaviy festivali, 2020-yilda oliy ta'lim muassasalarida barpo etilgan "5 ta tashabbus markazi", poytaxtimizda bunyod etilgan betakror "G'alaba bog'i", "Shon-sharaf" muzeyi, "Adiblar xiyoboni" yosh qizlarni milliy va umuminsoniy

qadriyatlar mushtarakligida ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Yoshlar parlamenti tarkibida tashkil etilgan 9 ta qo'mita ichida Ma'naviyat-ma'rifat va kitobxonlikni rivojlantirish masalalari, Fan-ta'lim masalalari qo'mitalarining ham mavjudligi yoshlarimizning bu boradagi faoliyatlarini takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishi tabiiydir.

Shunday qilib, bugungi tezkor zamonda tezkor fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli, har qanday vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, siyosiy savodxon va yuksak ma'naviyatli yosh qizlarni tarbiyalashni davr taqozo etmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyot kelajagi bo'lgan bunday yosh qizlarni qudratli manba sifatida har tomonlama himoyalaydi, huquq va manfaatlarini, sha'ni qadrlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Chunki yuksak taraqqiyotga intiluvchan yosh qizlar Yangi O'zbekistonni yanada buyuk O'zbekistonga aylantirishda munosib o'rin egallashi shubhasiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar –kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
7. Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2020-yil 23-sentabrdagi 75-sessiyasidagi nutqi.
8. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.
9. Qodirov A., Quronov M., Musurmanova O. Fazilatli avlod. Uzlusiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism: 7–18 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti. 2019. – 256 b. (2020-yil, yanvar).
10. Musurmanova A. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. www.fledu.pdf. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnali. – Toshkent, 2017. – № 3. – B. 168-172.
11. Musurmanova A. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. № 1 (47). pp.70-72.
12. Musurmanova A. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Developing Spiritual Culture of Adolescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018. pp.62-67.
13. Musurmanova A. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual cultute of adolescents of social and legal risk groups. "Проблемы педагогики" научно-методический журнал. – № 1(33), февраль. – Москва, 2018. – С. 5-7.